



## O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV BANDLIK HOLATI TAHLILI

*Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li -  
TDIU, Fundamental iqtisodiyot  
kafedrasida doktoranti*

[doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss3/a37](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a37)

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda inklyuziv bandlikning asosiy obyekt sifatida nogironligi bo'lgan shaxslar tanlandi. O'zbekiston sharoitida ular duch kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy to'siqlar yoritildi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, nogironlar mehnat bozori raqobati qurboni bo'layotganidir. Inklyuziya har bir davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi indikator hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarda mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan huquqiy chora-tadbirlar tahlil qilinadi hamda sohada mavjud kamchiliklar sanab o'tilgan. Inklyuziv bandlikni ta'minlash bo'yicha O'zbekistonda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada nogironlar bandligini huquqiy asoslari bilan bir qatorda ish beruvchilar uchun qanday subsidiya va soliq imtiyozlar mavjudligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida sohada mavjud kamchiliklar yoritilgan hamda istiqbolga erishish yo'lidagi taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

**Asosiy tushunchalar:** inklyuziv bandlik, nogironlar, imtiyozlar, preferensiyalar, ijtimoiy qatlam, ishsizlik, ish bilan bandlik, xayriya modeli.

## АНАЛИЗ СИТУАЦИИ С ИНКЛЮЗИВНОЙ ЗАНЯТОСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Усмонов Зиёдулла Улмас угли -  
ТГЭУ, кафедра «Фундаментальная  
экономика» PhD*

**Аннотация.** В данном исследовании в качестве основного объекта инклюзивной занятости были выбраны лица с инвалидностью. Выделены социальные, экономические и политические препятствия, с которыми они могут столкнуться в условиях Узбекистана. Актуальность темы заключается в том, что люди с инвалидностью являются жертвами конкуренции на рынке труда. Инклюзивность – это показатель, определяющий уровень развития каждой страны. В этих направлениях анализируются правовые меры, принимаемые нашей страной, и перечисляются имеющиеся недостатки в сфере. В Узбекистане проводится значительная работа по обеспечению инклюзивной занятости. В данной статье анализируются правовые основы трудоустройства инвалидов, а также какие субсидии и налоговые льготы предоставляются работодателям. В результате исследования были выделены существующие недостатки в области, и даны предложения и рекомендации для достижения будущего.

**Ключевые понятия:** инклюзивная занятость, инвалиды, льготы, преференции, социальный класс, безработица, занятость, благотворительная модель.

## ANALYSIS OF THE SITUATION OF INCLUSIVE EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN

*Usmonov Ziyodulla Ulmas ugli -  
TSUE, «Fundamental Economics»  
department PhD*

**Annotation.** In this study, persons with disabilities were selected as the main object of inclusive employment. The social, economic and political obstacles that they may face in the conditions of Uzbekistan were highlighted. The relevance of the topic is that disabled people are victims of labor market competition. Inclusion is an indicator that determines the level of development of each country. In these directions, the legal measures taken by our country are analyzed and the existing shortcomings in the field are listed. Significant work is being done in Uzbekistan to ensure inclusive employment. This article analyzes the legal basis of employment of people with disabilities, as well as what subsidies and tax incentives are available for employers. As a result of the research, existing shortcomings in the field were highlighted, and suggestions and recommendations were given to achieve the future.

**Key concepts:** Inclusive employment, disabled people, benefits, preferences, social class, unemployment, employment, charity model.

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari-ning aksariyat qismi bozor iqtisodiyotining mexanizmlari vositasida taraqqiy etmoqda. Ma'lumki, ushbu iqtisodiyot ko'plab afzalliklari bilan birgalikda o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Bu salbiy jihatlarga misol tariqasida jamiyat a'zolari o'rtasidagi daromadlari tabaqalanib borishi bunda iqtisodiy faol bo'lmagan ijtimoiy zaif qatlami past daromadlilar toifasiga kiritishimiz mumkin. Bu toifadagi aholi

guruhlarini iqtisodiy faol hamda yuqori daromadlilar qatoriga qo'shish uchun davlat sektori tomonidan inklyuziv bandligi ta'minlanishi zarur.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida ishchi kuchi bozorida bir qancha omillar tufayli boshqa subyektlar bilan erkin raqobatga kirisha olmasligi natijasida bandlik darajasi past bo'lgan aholi toifalari mavjud. Bunday toifaga nogironlar kiradi. Ish bilan bandlik insonning moddiy va

ma'naviy jihatdan yuksalishiga tayanch bo'ladi. Ushbu omil ayni damda nogironlar uchun juda muhimdir. Nogironlik guruhiga ega ko'plab mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar har doim ham osonlikcha ish topa olmaydilar yoki o'z ishlarini saqlab qololmaydilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslar erkin bozor iqtisodiyotining shavqatsiz mexanizmi natijasida iqtisodiy o'sish davrida eng oxirida ish bilan ta'minlanishsa, inqiroz davrida birinchilardan bo'lib o'z ish joylarini yo'qotishadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu mavzu bo'yicha yurtimizning bir qancha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan misol tariqasida T.Sadullayev "nogironligi bo'lgan shaxslar ishsizligining oldini olish choralari O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishini ta'minlash yo'nalishlari"[1], – keltirishimiz mumkin. Inklyuziv biznesni rivojlantirish (ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar misolida) masalalarini Q.Isayev, O'zbekistonni modernizatsiyalash sharoitida davlat boshqaruv samaradorligini oshirish (nogironlar bandligi misolida) mavzuda A.Abdusalilov, O'zbekistonda nogironlar yo'lidagi to'siqlar, inklyuziv bandlik, nogironlarning hayotiy tajribalarini sifatli o'rganish bo'yicha D.Yusupovlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Nogironlarga ta'lim berish va ularni ishga joylashtirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Nogironlarni mehnat faoliyatiga jalb etish o'rtacha 2 foizni tashkil qiladi, bu esa mas'ul idoralarning ushbu sohadagi ishi qoniqarsizligidan dalolat beradi"[2], – deb ta'kidlaganlar.

Jumladan, D. Yusupov va A. Abdusalilov nogironlar mehnat jaroyoniga integratsiyalashuvi masalasida "Inklyuziv bandlik jarayonida nogironlar duch keladigan muhim to'siq O'zbekistonda qulay jismoniy muhitning yo'qligi hisoblanadi. Jismoniy nuqsonlari bo'lgan va harakatchanligi cheklangan ishtirokchilar nogiron ishga joylashsa ham, Toshkent shahridagi jamoat infratuzilmasi obyektlarining mavjud emasligi ularning nogiron bo'lmanlar bilan teng ravishda mehnat qilishga, xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishiga imkon bermasligini ta'kidladilar" [3], – deb ta'kidlangan.

Shuningdek, Q. Isayev nogironlarni mehnat bozoriga integratsiyalashuvi uchun inklyuziv biznesni rivojlantirish davlat va jamiyat manfaatlariga qay tariqa to'g'ri proporsional kelishi haqida shunday degan: "davlatlar uchun inklyuziv biznes umumiy ijtimoiy-iqtisodiy o'sish va rivojlanishga samarali yondashuvni o'zida mujassam etadi. Nihoyat, aholi uchun inklyuziv biznes yaxshi hayot, ijtimoiy inklyuzivlik, bandlik va barqaror turmush manbaidir" [4].

Fadin N. o'z ilmiy tadqiqotida "nogironlarni ish bilan ta'minlashning mexamizmlarini rivojlanti-

rish"[5], - aytib o'tgan bo'lsa, Belozerova E. esa "zamonaviy rus jamiyatida nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlash strategiyalarini"[6], yoritib bergan.

Shu jumladan, S. Osipov ilmiy dissertatsiyasida inklyuziv bandlikning ahamiyati to'g'risida "mintaqaning o'zgaruvchan iqtisodiyoti sharoitida nogironlarni ijtimoiylashtirish hamda bandligini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi"[7], - degan.

MDH mamlakatlarida nogironlarni ish bilan ta'minlash sharoitlari, yo'nalishlari, strategiyalari mavzulari bo'yicha N.I.Fadin, Y.V.Belozerova, O.V.Senokosova, S.A.Osipov, N.M.Belkova, V.N.Zyazin, N.V.Gashenina tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Yevropa tadqiqotchilar tomonidan nogironlar mehnat bozorini o'rganish, ularning bandligiga ko'maklashishni huquqiy tartibga solish masalalari bilan D.Birkenbax, D.Uilyams, D.Kruz, D.Lord, M.Oliver, D.Braddok, L.Rovba, D.Hotchkis shug'ullangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ish bilan bandlikning bir qancha turlari orasida inklyuziv bandlik eng muhim ahamiyat kasb etishining asosiy sabablaridan biri nogironlarning faravon hayot kechirishi uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda moliyaviy barqarorlik yo'qligidir. Shu sababli maqolada nogironlar bandligi jarayoni natijasida yuzaga kelayotgan to'siq va muammolar analiz va sintez usullaridan foydalanib tasnif etildi. O'zbekiston qonunchiligida nogironlar uchun yaratilgan imtiyoz va subsidiyalar iqtisodiy tahlil, guruhlash, tanqidiy baholash metodlaridan foydalanib, sohani isloh etish yo'nalishlari yoritib berilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishsizligi muommasi yechimlari, ish bilan band bo'lgan qatlamga qulay mehnat sharoitlari yaratish, bozor infratuzilmasini ular uchun moslash hamda mehnat bozoriga raqobatbardosh, yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega ishchi kuchini yetkazib berish uchun xorijiy va mahalliy olimlarni tadqiqot ishlari tahlil qilish natijasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Insonning faravon hayot kechirishi boshqa bir qator omillar bilan birgalikda mehnat bozorida erkin faoliyat yurita olishiga bog'liqdir. Har bir inson iqtisodiy faoliyati davomida turli xil moliyaviy, ijtimoiy va institutsional to'siqlarga duch keladi. Ayniqsa, bu kabi muommolar nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotida bir qancha og'irroq va ijtimoiy bosim ostida ro'y beradi. Nogironlar odatda o'zlarining shaxsiy turmush tarzlarida turli tuman muammolar bilan yuzlashishlariga qaramay, daromad topish uchun inklyuziv bandlik jaroyonida ham talay muammolar ularni qarshi oladi. Ushbu to'siqlarga quyidagilarni keltirish mumkin: munosib ish o'rnini izlash, teng imkoniyatlar ostida qurilmagan kuchli raqobat, ish beruvchilar tomonidan nogironlarning mavjud qobi-

liyatlariga emas, aksincha nogironlik asoratlariga urg'u berilishi, mehnat sharoitlarini talab darajasida emasligi, transport infratuzulmasidagi noqulayliklar shular jumlasidandir.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun davlatimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish doirasida nogironlar mehnat faoliyatini tartibga solish doirasida bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti innovatsiyalashuv jaroyinida bo'lib, yurtboshimiz tomonidan inson manfaatlarini, uning qadr-qiyamati va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va yuksaltirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu islohotlardan nogironlar munosib ish o'rnini topishi uchun bir qancha imtiyoz va preferensiyalar o'rin olgan. Ularni qisqacha izohlab o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[8]gi 57-sonli qarori inklyuziv bandlik doirasidagi muammolarning huquqiy yechimi hisoblanadi. Ushbu qarorda quyidagi ustuvor yo'nalishlar keltirilgan:

- 2022-yil 1-yanvardan boshlab Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya beriladi.

- 2022-yil 1-martdan boshlab:

a) Soliq kodeksining 380-moddasi birinchi qismiga muvofiq bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyoz mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravaridan 3 baravarigacha oshiriladi;

b) 2024-yil 1-martga qadar ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) ular tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi Davlat budjetidan to'liq qaytarib beriladi.

- Davlat buyurtmachilariga elektron kooperatsiya birjasi portalida ro'yxatdan o'tgan, ishlovchi xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat va nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda -

yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar) bilan ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat berilsin.

- Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalar har bir nogironligi bo'lgan yoshning talabiga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan miqdorda mazkur bandda ko'rsatilgan yo'nalishlardan bittasi uchun ajratiladi.

- "El-yurt umidi" jamg'armasi Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan 2022-yildan boshlab har yili tanlov asosida tanlab olingan 20 nafargacha nogironligi bo'lgan iqtidorli yoshlarning yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan onlayn kurslarda ta'lim olishini tashkil etsin.

- Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi 2022-yil 1-fevraldan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tuman (shahar)lar hokimlarining qarori bilan belgilangan ish o'rinlarining eng kam soni va ish beruvchilar tomonidan ish o'rinlari zaxiraga qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiruvchi bo'sh (vakant) ish o'rinlari milliy bazasida real vaqt rejimida aks etib borishini ta'minlasin.

Shuningdek, 2023-yil 23-mart sanasidagi 122-sonli hukumat qarori qabul qilindi unga ko'ra Nogironligi bo'lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi. "Nizomga ko'ra, yer uchastkasini auksion orqali sotib olish xarajatlaridan kelib chiqqan holda, oilasi tarkibida nogironligi bo'lgan shaxslar sonidan qat'i nazar, BHMning 100 baravarigacha (30 mln so'mgacha) miqdorda bir martalik to'lov ajratiladi" [9].

Ushbu olib borilgan islohotlar inkluziv bandlikni ta'minlash o'z natijasini ko'rsatish bilan birgalikda sohada hali ham yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Birinchidan, transport infratuzulmasi muammosi, nogironligi bo'lgan aholi toifalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarga asosan respublika miqyosida nogironlar uchun jamoat transportidan qulaylik darajasi 90 foizga talabga javob bermasligi aniqlangan.

Ikkinchidan, pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishda ko'zi ojiz o'qituvchilar boshqa xodimlar bilan bir xil shartlar asosida imtihon topshirishga majburligi.

Uchunchidan, shaharsozlik, uy-joy qurilishi, aksariyat yo'l osti va yo'l usti yo'laklarining nogironlar imkoniyatini hisobga olmagan holda qurilganligi.

To'rtinchidan, nogironlarga o'z huquqlarini amalga oshirishda keng imkoniyatlar berilishi kerak. Biroq O'zbekistonda nogironlarga faqat xayriya va ehson oluvchi shaxslar tushunchasi bilan yondashuv jamoatchilik ongida muhrlanib qolgan.

Beshinchidan, ko'zi ojiz pedagog xodimlar umumta'lim muassalarida hech qanday rag'batlantirishsiz faoliyat yuritmoqda, zotan nogironlar uchun iqtisoslashgan davlat ta'lim muassalarida egallab turgan lavozimlarining 100 foiz miqdorida ustamalar to'lanadi.

Oltinchidan, professional ta'lim tashkilotlarida ishlayotgan ko'zi ojiz xodimlarga maktab ta'limi xodimlariga o'xshab tarjimon kotibalarining mavjud emasligi.

Yettinchidan, ish beruvchilar ongida nogironlar mehnatga layoqatsiz, mehnat unumdorligi past bo'ladi degan fikr mustahkam o'rnatilib olgan.

Sakkizinchidan, jamoatchilik tomonidan nogironlar nafaqasini oylik daromad sifatida qarab, ular ishlashi shart emas, degan qarash bilan ularni ishchi kuchi bozori subyekti sifatida tan olinmaydi.

To'qqizinchidan, hozirgi kunda hattoki nogironlar ishsizlik ro'yxatidan o'tgan bo'lishlariga qaramay, ishsizlik nafaqasini olishga haqli emaslar bunga asosiy vaj sifatida ularning nogironlik nafaqasini olishlari keltiriladi.

Yuqoridagi muommolar biz aytmoqchi bo'lgan holatlarning bir qismi hisoblanadi. Eng achinarlisi shundaki, jamoatchilik dunyoqarashida nogironlarga yondashuvning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga o'ta olmayotganidadir. "Odamlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat tashkilotlari va xususiy sektorining potensial xodimlari sifatida emas, asosan, hayriya va realibitatsiya yordamini oluvchi sifatida qarash saqlanib qoloyotganligini alohida ta'kidlash joiz"[10]

**Xulosa va takliflar.** Mamlakatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan fuqoralarni foydasini ko'zlab mehnat kodeksida bir qancha imtiyozlar borki, ular nogironlarning foydasi uchun emas, zarari uchun xizmat qilayapti, desak xato bo'lmaydi. Ushbu masala yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi quyidagilarni ko'rsatgan: "Mehnat kodeksida nogironlar uchun ma'lum imtiyozlar, ya'ni ular kamroq ishlashlari kerak, ular uchun qandaydir imtiyozlar va imkomiyatlar mavjud. Shubhasiz, ish beruvchilarga bu yoqmaydi. Nega? Chunki ular odatdagidek ishlaydigan odamlarni ishga olishlari kerak va nogironlar, birinchi navbatda, bu imtiyozlarga ega, ammo ular talab qila boshlasachi? Ishlamochi bo'lsangiz, normal ishleng, sizga teng munosabatda bo'-

lishni istasangiz, teng sharoitda ishleng. (Ishtirokchi\_1)"[11]. Shu sababdan mehnat kodeksidagi nogironlar qisqartirilgan vaqt asosida ishlashi va mudatdan oldin imtiyozli ta'til olishi haqidagi imtiyozlar qayta ko'rib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bu moddalarga ish beruvchilar tomonidan yuqoridagi kabi salbiy qarashlar kuzatilmoqda.

Ishchi kuchi bozoridagi inklyuziya uzoq mudat va izchil olib boriladigan jarayondir. Shu boisdan davlat bosh islohotchi sifatida bir nechta bosqichda amaliy tadbirlar olib borishi kerak. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ nogironlarni mehnat bozoriga tayyorlash, ishsizlik muammolarini yechimlari, qulay mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha mamlakatning uzoq va qisqa muddatlarga muljallangan strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bunda uzoq muddatli strategiya kamida 10 yilga mo'ljallangan bo'lishi shart. Chunki nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat jarayoniga adaptatsiyasi va yuqori samaradorlikka erishish jarayoni uzoq vaqt talab qiladi.

- ❖ shaharsozlik, transport infratuzilmasida muammolari mavjudligi sabab masofadan turib ishlanadigan ish o'rinlarini nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yo'naltirish lozim.

- ❖ xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ma'lum toifadagi tovarni nogironlar mehnatiga asoslangan holda monopol ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerak.

- ❖ xususiy sektor vakillari tomonidan inklyuziv bandlikni ta'minlash uchun davlat tomonidan qanday imtiyoz va preferensiyalar berish kerakligi to'g'risida so'rovnomalar hamda tadqiqotlar o'tkazish.

- ❖ mehnatga layoqatli nogiron yoshlarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish uchun turli xil ish variantlarini sinab ko'rish imkonini beruvchi korxonalarda amaliyotlarni joriy etish.

- ❖ maktab yillarida nogironligi bo'lgan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi kun tartibiga qo'yilishi uzoq muddatli bandlik istiqboliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bandlik va martabani oldindan rejalashtirishga e'tiborni maktab hayotining so'nggi yoki ikki yiliga qoldirmay, 13 yoshidan yoki boshlang'ich maktabning keyingi birinchi yilidan boshlash kerak.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyotining salbiy jihati qurboni bo'lgan nogironlarni bandlik jarayoniga inklyuziyasi uchun davlat bosh islohotchi sifatida kuchli ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borishi talab qilinadi. Davlatning inklyuziv bandlikni ta'minlashdagi har qanday investitsiyasi aholining kambag'allik darajasini qisqartirish, mehnat bozorida erkin raqobat muhitini shakllantirish, tovar va xizmatlarga talab miqdorining oshishi singari vositalar yordamida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

### *Manba va adabiyotlar ro'yxati:*

1. Sadullayev T. O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv o'sishni ta'minlash yo'nalishlari. Avtoreferat. – T.: TDIU, 2023.
2. Prezident farmoyishi, 5006-son, *nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.* //Lex.uz, 01,08.2017-y.
3. Yusupov D. Abdukhalilov A. *Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan.* // Journal of International Development, 2022, 34-son. 1048-1068-betlar.
4. Isayev Q. *Har bir inson – bebaho kapital.* // Xalq so'zi, 2023, 34-son. 4-b.
5. Фадин Н. И. *Совершенствование механизмов содействия занятости инвалидов России. Автореферат.* – Москва, 2020.
6. Белозерова Е. В. *Стратегии занятости инвалидов в современном российском обществе. Автореферат.* – Саратов, 2005.
7. Осипов С. А. *Социализация и содействие трудовой занятости инвалидов в условиях трансформирующейся экономики региона. Автореферат.* – Воронеж, 2007.
8. Prezident qarori, 57-son, *Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.* //Lex.uz, 21.12.2021-y. 1 – 5 bandlar.
9. Vazirlar mahkamasi qarori, 122-son, *Nogironligi bo'lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risida.* //Lex.uz, 23.03.2023-y
10. Isayev Q. *Har bir inson – bebaho kapital.* // Xalq so'zi, 2023, 34-son. 4-b.
11. Yusupov D. Abdukhalilov A. *Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan.* // Journal of International Development, 2022, 34-son, 1048-1068 betlar.
12. Белькова Н. М. *Развитие трудовой занятости инвалидов в современных условиях России, Автореферат,* // Москва – 2012.
13. Зязнн В. Н. *Социально-экономическая политика обеспечения занятости инвалидов, Автореферат,* // Москва – 2011.
14. Гашенина Н. В. *Регулирование занятости инвалидов в регионе, Автореферат.* – Орел, 2007.